

## XALQ PEDAGOGIKASI ASOSIDA TALABALARDA VATANPARVARLIKNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

**Tursunov Sardorbek Akmaljon o'g'li**  
NamDU mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada vatan,vatan tuyg'usi,vatanparlik, ona vatanga muhabbat, mamlakatimizda yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, yoshlarda vatanparvarlik hissini shakllantirishga oid tushunchalar,berilgan hamda, talaba yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning pedagogik – psixologik mexanizmlari yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** vatan, vatanparvarlik, tarix, millat, ma'naviyat, ahloq, odob, xalq, milliy an'ana, ijtimoiylashuv.

Zamonaviy jamiyatda vatanparvarlik tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, bu jarayonning maqsadi - o'z Vatanini sevadigan, Vatanga sadoqatli, unga o'z mehnati bilan xizmat qilishga va o'z manfaatlarini himoya qilishga tayyor vatanparvar shaxsni tarbiyalashdan iborat

Vatanparvarlik esa, vatan sevgisi, uning bag'rikengligi va unga xizmat qilishni o'z ichiga olgan ma'naviyatdir. Vatanparvarlik ruhi, insonlarning o'z mamlakatiga, uning tarixiga, madaniyatiga va xalqining an'analariga hurmat ko'rsatish, uning mustaqilligini himoya qilish uchun faol ishtirok etish va unga xizmat qilishni o'rganish va qadrlash maqsadida o'sgan ma'naviyatdir. Vatanparvarlik ruhi, millatning birligini saqlash, uning o'zaro muhabbat va hurmatini oshirish, milliy til va adabiyotni saqlash, milliy san'at va madaniyatni rivojlantirish, milliy an'analar va adatlar asosida yashash, milliy bayonotlarni o'rganish va uning o'zaro munosabatlari, hamda boshqa milliy muammolari hal qilishga intiladi.

Vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg'ulari bu qushaloq tuyg'ular bo'lib, ularni bobolarimiz ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi tizimida birgalikda singdiriladigan tuyg'ulardir. Yuqorida fikrlar asosida bolalarimizga vatanparvarlik, isonparvarlik va mehr-muruvvat his tuyg'ularini bolaning ilk yoshidan avvaliga oilada va maktabgacha ta'lim muassasalarida boshlash yaxshi, ijobiy samaralar beradi. Bu esa ota-onalar va tarbiyachi murabbiylar oldilarida turuvchi dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Murg'ak qalblarda Vatan tuyg'usi nimadan boshlanadi o'zi?

Jajji yuraklarda Vatan tuyg'usi - bu onalar allasi, bobolar o'giti, oila tarbiyasidan boshlanadi. Vatan tuyg'usi - bu milliy qadriyatlar, urf odatlarni qadrlash, sevish va undan faxrlanish degani.

Vatan tuyg'usi – buyuk siymolarimizdan ibrat olish degani. Ibn Sino, Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi ota-bobolarimizni tanish, ulardan faxrlanish, ularni doimo eslamoq degani.

Millat qadriyati, bir millatning o'zining tarixi, madaniyati, adabiyoti, san'ati, an'anasi va axloqiy-ma'rifiy boyliklari bilan bog'liq ma'naviyat va qadriyatlar to'plamidir. Bu qadriyat millatning o'zining o'ziga xos, unikali, asosiy erkak va uning mustaqilligini ifodalovchi ma'naviyatdir. Millat qadriyati, millatning birligini saqlash, uning o'zaro muhabbat va hurmatini oshirish, milliy til va adabiyotni saqlash, milliy san'at va madaniyatni rivojlantirish, milliy

an'analar va odatlar asosida yashash, milliy bayonotlarni o'rganish va uning o'zaro munosabatlari, hamda boshqa milliy muammolari hal qilishga intiladi.

Vatanparvarlik ruhi, insonlarning o'z vatanlariga hurmat ko'rsatish, uning tarixi, madaniyati, adabiyoti va axloqiy-ma'rifiy boyliklari bilan tanishtirish, ularga qadr-izzat ko'rsatish, uning xizmatida faol ishtirok etish va uning manfaatlarini his qilishni o'rganish uchun zarur bo'lган bilim va ko'nikmalarni oshirish maqsadida amalga oshiriladi.

Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda xalq milliy an'analaridan foydalanishning nazariy asoslari, birinchi navbatda, xalqning milliy tarixi, madaniyati va adabiyoti bilan bog'liqdir. Xalqning o'ziga xos an'analar, atrofidagi tabiat va uning madaniyatining o'zgacha xususiyatlari, tarixiy va madaniy meroslarini o'rganish va unga e'tibor qaratish, vatanparvarlik ruhini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Buning bilan birga, xalqning milliy tilini, musiqa, o'yinlar va o'yinlar, adabiyotlar, mazmuniy mahsulotlari va boshqa madaniy meroslarini o'rganish, saqlash va oshirish ham muhimdir.

Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda xalq milliy an'analaridan foydalanishning boshqa bir nazariy asosi, milliy identifikatsiyani kuchaytirish va milliy birligini ta'minlashdir. Xalqning milliy an'analar va adabiyoti, uning o'ziga xosliklarini ifodalovchi va uning identifikatsiyasini belgilovchi muhim vositalardir. Bu an'analarни o'rganish va ularni o'zlashtirish orqali, insonlar o'z mamlakatiga, millati va tarixiga bag'ishlangan his-tuyg'ularini rivojlantirishadi. Shuningdek, xalq milliy an'analaridan foydalanish, fuqarolarning vatanparvarlik ruhini oshirish, milliy birligini ta'minlash va mamlakatning mustaqilligini himoya qilishga qaratilgan vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Vatan tuyg'usi – bu Vatanga munosib farzand bo'lishni anglash degani.

Kuzatish shuni ko'rsatadiki, bolalarda mashg'ulot orqali ona yurtga muhabbat hissi kuchaydi. Bolalarda mehr – muhabbat, hissi shakllandi. Mustaqillik sharofati bilan qayta tiklangan, xaq – huquqlarimiz, ozodlik, erkinlik, o'z davlat tiliga ega bo'lish tabiat boyliklaridan xalq baxt saodati, manfaati yo'lida foydalanish haqida bilimga ega bo'ldilar. Mashg'ulotlarda bolalardan Ona yurtni sevish, uning boyliklarini qadrlash, ota – onalariga, do'st – o'rtoqlariga, mehr – shafqat ko'rsatish, o'z ona tuprog'ini har bir qarich yerini asrab avaylash, uning uchun jonini fido qilish kabi his – tuyg'ularni shakllantirildi.

Hozirgi rivojlanish davrida davlatimizning ravnaqi, tinchligi va totuvligiga rahna solish, shuningdek davlatimiz yoshlarga buzg'unchi va yod g'oyalar targ'ib qilib, ularni yo'ldan og'dirish hamda ong'ini zaharlashni maqsad qilganlar kun sayin ko'payib bormoqda. Bugungi kunda yoshlarni vatanparvar qilib tarbiyalashda xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatlari va an'analarini o'rganish katta ahamiyatga kasb etmoqda. Shu sababli, tarixiy merosni asrab avaylash, o'rganish va kelajak avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Ma'lumki, hozirda ilmiy texnikaviy taraqqiyot davri dadil olg'a siljib borayotgan bir davrda, har bir inson faoliyati uchun qulay imkoniyat va shart sharoitlar yaratib berilmoqda. Lekin hech birimiz unitmasligimiz lozimki, bugungi kunda halqimiz uchun eng oliy ezgulik tinch va osoyishta hayotdir. Bu esa bizni mustaqillikka erishgan yillardizda halqimizning tinch va barqaror hayoti uchun erishilgan salmoqli natijalarini yanada teranroq anglashga chorlaydi. Mustaqillik yillarda barcha talablarga javob beradigan, mobil va tezkor, tashkiliy jihatdan mukammal va yaxshi

qurollangan, zamonaviy texnika bilan jihozlangan armiyani shakillantirish jarayoni oson kechmadi. Ammo bugun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi va rahnomoligida harbiy ta'limni rivojlantirish milliy armiyamizni yigitlarimiz bilan ta'minlashga katta e'tibor qaratilayotganini bugun qat'iy ta'kidlashimiz joiz. Millati, tili va dinidan qat'i nazar, shu zaminda voyaga yetgan va yashayotgan har bir inson milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalanmoqda.

Vatanparvarlik – o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. Vatanparvarlik - (yunon tilidan *patris*- vatan) - axloqiy-siyosiy tamoyil, ijtimoiy tuyg'u, uning mazmuni vatanga muhabbat, uning o'tmishi va buguni bilan faxrlanish, o'z manfaatlarini mamlakat manfaatlariga bo'ysundirishga tayyorlik, xalq manfaatlarini himoya qilishga intilishdir.

Psixolog I.F.Xarlamov vatanparvarlikni o'zaro bog'liq bo'lgan axloqiy tuyg'ular va xulq - atvor fazilatlari majmui, shu jumladan vatanga muhabbat, vatan ravnaqi yo'lida faol mehnat qilish, xalqning mehnat an'analariga rioya qilish va ko'paytirish, o'z ona yurtining tarixiy obidalari va urf-odatlarini hurmat qilish; ona yurtga sadoqat, vatan sha'ni va qadrqimmatini mustahkamlashga intilish, uni himoya qilishga tayyorlik va qobiliyat, harbiy jasorat, jasorat va fidoyilik, xalqlar birodarligi va do'stligi, irqiy va milliy adovatga toqat qilmaslik, xalqning urf-odatlari va madaniyatiga hurmat, boshqa mamlakatlar va xalqlar, ular bilan hamkorlik qilish istagi – deb ta'rif beradi.

Vatan – kishilarning tug'ilib o'sgan joyi, yurti, mamlakati; tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiatni, aholisi, o'ziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlari majmui. Vatan ona kabi yagona, muqaddas. Vatan oldidagi qarzdorlik tuyg'usi, mas'uliyati har bir yetuk insonga xos xususiyatdir. Vatanni sevish vatanparvarlikda namoyon bo'ladi Har birimizda Vatan tuyg'usi – bu aziz va go,zal yurtimizga hurmat va sadoqatli bo'lishni ko'zda tutadi. Vatan tuyg'usi – bu Turon, Movarounnahr, Turkiston va hozirda O'zbekiston deya atalgan zaminda yashab kelayotgan xalqimizning oltin merosini, uning tarixini o'rganishga intilishdir. Vatan ozodligi uchun jonini fido qilgan To'maris, Shiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik singari xalqimizning mard, jasur farzandlari biz uchun, o'sib kelayotgan yosh avlod uchun o'rnak va namuna timsolidir. Masalan, bobomiz Najmiddin Kubroning o'chmas jasoratini esga olaylik. Bu jasorat zamirida ona Vatanga cheksiz muhabbat va sadoqat tuyg'usi yotadi. O'z davrining faylasufi va jamoat arbobi Abdurauf Fitrat "Yurt qayg'usi" she'rida "Yurtim, Turonim, sendan ayrimoq - mening o'limim, sening uchun o'lmoq - mening tirikligimdur", deb yozgan edi. Bu so'zlar zamirida vatanparvar insonning qalb nolalari ifodasini topgan. Xususan, yosh avlodga vatanparvarlik tuyg'usini singdirish muhim bir burch sifatida qarash kelajak talabi desak adashmagan bo'lamiz. O'z navbatida Vatanparvarlik tushunchasi to'xtalsak, kishilarning ona yurtiga, o'z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash esa – mustaqillik, erkin va farovon hayot masalasi hisoblanadi. Shuning uchun hozirgi kunda yoshlarimizni harbiyvatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ongiga harbiy vatanparvarlikning komponentlarini chuqr singdirish ta'im tizimi oldida turgan muhim masalalardan biri desak adashmagan bo'lamiz.

Har bir mamlakat a'zosi qaysi sohada faoliyat olib borishidan qat'i nazar, vatanparvarlik tuyg'usini anglagan holda, o'zining ma'naviy kamoloti uchun mas'uliyatni his qilishi, shaxsiy manfaatlarini shu Vatan, shu xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtirib yashashi va mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol va komil inson qilib tarbiyalashi lozim. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev "Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namayon bo'ladi", deya bu jarayonga yuksak baho bergen edi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so„zi. 247 (6741)-soni. – 2017. 7 dekabr.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi – V harfi, Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent B-64.
3. Vazirlar Mahkamasining «Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to„g,risida» 2023 yil 29 iyundagi 267- son qarori.
4. Bobur «Bobur-noma» Baku, 2011. B. 24, 139.
5. A.O. Xudoyqulov. Talabalarda vatanparvarlik tarbiyasi orqali ularda
6. vatanparvarlik tuyg,usini shakillantirish/ Academic Research in Educational Sciences/ISSN: 2181-1385 Volume 5. 2024.
7. Ahmadi Sanaullah. O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda xalq milliy an'analaridan foydalanishning nazariy asoslari/"Ilg'or xorijiy tajribalar asosida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 2024-yil 20-fevral.